

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Aholi maskanlarini vujudga kelishida geomorfologik omillarning o'rni va ahamiyati	231
O.I.Abdug'aniyev	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash usullari	236
T.D.Jumayev, Sh.B.Qurbanov	
O'zbekiston tog' zonasasi ma'muriy-hududiy bo'linishi xususiyatlari va ularni takomillashtirish	244
P.A.Xasanov	
Landshaftlardan foydalanishda turli yondashuvlarning qo'llanilishi va tizimli yondashuv	250
<hr/>	
QISHLOQ XO'JALIGI	
N.A.Abdujalil, S.A.Bayrambay, I.N.Mamajonov	
Urug'lik paxtani yetishtirish va yuqori kondisiyali urug'lik fondini tayyorlash.....	257

ILMIY AXBOROT

K.G'.Baykalanov	
O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarodarligini oshirishda jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhit farovonligining o'rni.....	263
G.M.Maxsudova	
Ekologik ta'limni modernizatsiyalashda ekosavodxonlikni shakllantirishning pedagogik va integrativ jihatlari	267
Sh.Ismatov	
Yangi O'zbekiston – yangi ma'naviy makon	272
A.A.Saodatov	
Yoshlar ekologik madaniyatida nodavlat-notijorat tashkilotlarining tutgan o'rni.....	276
M.X.Raxmatulloev	
Buxoro viloyat radiosining tashkil topishi tarixi va faoliyati	280
D.I.Nuriddinova	
Ona tili ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish texnologiyasi.....	285
D.M.Redjabova	
Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida xotin-qizlarning davlat tashkilotlaridagi faolligi	290
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik jihatlari	294
K.I.Turdaliyeva	
Интерпретация литературы по формированию функциональной грамотности учащихся начальных классов	297
N.A.Subxonova	
Mahalliy va xorij manbalarida Amir Shohmurod shaxsi va faoliyati tavsifi	303
Sh.M.Xaydarova	
Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlar o'ttasidagi dialektik munosabatlar va ularning rivojlanishi	307
D.M.Xusanov	
Axloqiy qadriyatlar va ularning postmodern jamiyatdagi o'ziga xos jihatlari	311
R.S.Batirov	
Ijtimoiy kapital tushunchasi va uning asosiy elementlari xususida	315
A.X.Mamadalimov	
Kosmopolitizm tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari xususida	319
Y.Sh.Yunusova	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarining falsafiy xususiyatlari	324
N.T.Buzrukova	
Zamonaviy jamiyatda shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash zarurati va falsafiy asoslari	327



6.

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 30 Issue 6, 2024-yil

DOI: [10.56292/SJFSU/vol30_iss6/a144](https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol30_iss6/a144)**УО'К: 342.51.(575.1)****YANGI O'ZBEKISTON – YANGI MA'NAVIY MAKON****NEW UZBEKISTAN – A NEW SPIRITUAL SPACE****НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН – НОВОЕ ДУХОВНОЕ ПРОСТРАНСТВО****Ismatov Shohrubek** 

Buxoro davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya

Yangi O'zbekiston umumjahon o'zgarishlari jarayonida o'zining betakror ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy yangilanishlari dasturiga ega bo'lgan mamlakat sifatida o'ziga xos va mos mavqe egallab bormoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuoqur islohotlar, reformatsion siyosiy yangilanishlar hozirgi zamон jahon sivilizatsiyasi bilan mushtarakdir. "Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyatni sari" g'oyasi asosida inson manfaatlari hamda uning huquq, erkinliklari, milliy va ma'naviy qarashlarini erkin ifoda etish Yangi O'zbekistonda yanada mustahkamlanib borilmoqda.

Аннотация

Новый Узбекистан утверждает себя как уникальная страна с собственной программой отличительных социально-политических и духовных обновлений в условиях мировых изменений. Глубокие реформы и трансформационные политические изменения, происходящие в нашей стране, соответствуют современным мировым цивилизациям. Исходя из идеи "От сильного государства к сильному гражданскому обществу", интересы личности, а также её права, свободы и национальные и духовные ценности всё более укрепляются в Новом Узбекистане.

Abstract

New Uzbekistan is establishing itself as a unique country with its own program of distinctive social-political and spiritual renewal amid global changes. The deep reforms and transformational political changes taking place in our country are aligned with contemporary world civilization. Based on the idea of "From a Strong State to a Strong Civil Society," the interests of individuals, as well as their rights, freedoms, and national and spiritual values, are increasingly being reinforced in New Uzbekistan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'naviy makon, fuqarolik jamiyat, qadriyat, ma'naviy yangilanishlar, huquq, erkinlik.**Ключевые слова:** духовность, духовное пространство, гражданское общество, ценности, духовные обновления, права, свобода.**Key words:** spirituality, spiritual space, civil society, values, spiritual renewal, rights, freedom.**KIRISH**

Mening nazarimda, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi – ma'naviyat chirog'i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg'otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi.

O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishar ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma'naviyat shu'lesi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashga da'vat etib turishi zarur.

Shavkat Mirziyoyev

XXI asr insoniyat tarixida yangi davrni boshlab berdi. Inson va jamiyat taraqqiyotida yangi bosqich, yalpi yangilanishlar jarayoni amal qila boshladi. Bunday o'zgarishlar jahon iqtisodiy, ma'naviy hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida keng miqyosli yangilanishlarning ravshan ifodasidir. Umumjahoni yangilanishlar jarayoni avval biron-bir mamlakat, keyinchalik qator davlatlar, mamlakatlar taqdiriga, jamiyat insonlar hayotiga ijobjiy ta'sir ko'rsata boshladi. Innovatsion taraqqiyot jarayoniga har bir davlat o'z iqtisodiy salohiyati, ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy saviyasi, kamoloti darajasida qo'shila boshladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Yangi ma'naviy makonni yaratish masalasiga "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Prezident farmoni muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublika Prezidenti asarlari, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi axborotlar hamda gazeta, jurnal, internet manbalari ilmiy tadqiqot ishiga kiritildi.

MUHOKAMA

Yangi O'zbekiston umumjahon o'zgarishlari jarayonida o'zining betakror ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy yangilanishlari dasturiga ega bo'lgan mamlakat sifatida o'ziga xos va mos mavqe egallab bormoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar, reformasion siyosiy yangilanishlar hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi bilan mushtarakdir. Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotni maqsadli takomillashtirish, bu muhitni umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligi ruhida rivojlantirish, liberalizm muhitini har tomonlama kengaytirish faqatgina da'vat etish orqali emas, balki, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi orqali mamlakatimizda yalpi yangilanishlar jarayoni boshlanishiga amaliy qadamlar qo'yildi. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatlari va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish sohalarini tubdan isloh qilish yangilangan davlat, o'zgargan jamiyat va komil shaxsni yaratish imkonini yaratmoqda.[1] Davlat va jamiyat, shaxsni yangilash jarayonlarini maqsadli boshqarish nyechog'li aqliy shijoat, pragmatik siyosat hamda siyosiy iroda va matonatni talab etganligiga bugungi kunda amin bo'lib turibmiz. Zero, bu boshqaruv sermashaqqat va murakkab kechuvchi ijtimoiy-siyosiy voqealar, mafkuraviy ta'sir va tazyiqlar sharoitida amalga oshirilmoqda. Yoshlarining milliy qadriyatlarga munosabati, milliy g'oya asosida erkin hayot, obod va ozod Vatan qurish yo'lidagi harakatlari, maqsad va manfaatlarini umumlashtiradigan, tahlil etadigan, shu g'oyalami boyitish va ishonch, e'tiqodga aylantirish bilan bog'liqdir. Shaxsning o'zligini anglashi, mustahkam e'tiqodiga va fikriga ega bo'lishi, o'z milliy qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash ham Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan reformatsion islohotlardan chetga qolgani yo'q.[2]

Yangi O'zbekiston keng mashtabli yangilanishlar jarayonini ikki o'zaro uzviy bog'langan yo'nalishlarda amalga oshirishga kirishdi. Agar, ularning birini mamlakat ichki dunyosida, ya'ni iqtisod, ma'naviyat, siyosat va turmush tarzida xalq roziligi tamoyillari asosida amalga oshirilgan yangilanishlar tashkil etsa, ikkinchisini xalqaro hamjamiyatda O'zbekiston qiyofasini qaytadan shakllantirish, ya'ni ahil qo'shnichilik munosabatlarini qaror toptirish, o'zaro hamkorlik munosabatlari, pragmatik tashqi siyosat, tinchlik madaniyatiga o'tish, millatlararo va dinlararo tolerantlik munosabatlarini chuqurlashtirish, insoniyatga umumiyligini xavf tug'diruvchi terrorizm, narkobiznes, ekstremizmga qarshi xalqaro tashkilot tuzilmalari bilan chuqur hamkorlikka asos solish va boshqa faoliyatlar majmuidan tashkil topadi.

O'zbekistonda ma'naviy yuksalish, milliy qadriyatlarni tiklash, vorislik ananalariga sadoqatli avlodni tarbiyalash va amaliyatga joriy etish strategiyalari hayotga joriy etila boshlandi. O'zbekistonning jamiyatni tubdan yangilash, barcha sohalarni isloh qilish, ularni yangi g'oyalar asosida o'zgartirish strategiyasi dunyo hamjamiyati tomonidan to'la ma'qullanib, qo'llab-quvvatlanayotganligi o'zbek xarakteri o'zgarganligi, xalq ongi, ruhiyati, mentaliteti yangilanayotganligidan dalolat beradi.

Yangilanish jarayonlarining pirovard natijalari ham inson imkoniyatlarini to'larq yuzaga chiqishiga, shaxs potensiali, salohiyat zahiralari namoyon bo'lishiga keng yo'l ochishdan iboratdir.

Albatta biz tanlagan yo'l inson manfaatlari to'la himoya qilingan, uning erki, ozodligi har tomonlama huquqiy kafolatlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidir. Bu albatta, inson ongi va tafakkurini o'zgartirish, turmush tarzini yangilash orqali shaffof jamiyatni vujudga keltirishning yaxlit va to'laqonli tizimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangilanishlar jarayonida ma'naviy yangilanishlar alohida o'rinn tutadi. U demokratiya jarayonlarini chuqurlashtirishda, jamiyatni erkinlashtirishda fuqarolar faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda tub o'zgarishlarning «Uchinchi Reneseans poydevori» sifatida jahon taraqqiyot startegiyalari tajribasida o'ziga xos hissa bo'lib qo'shiladi. Boshqacha aytganda, jamiyatni rivojlantirishning bunday modeli Yangi

O'zbekiston shakllantirimoqda va ijtimoiy boshqaruvning xalqaro standartlariga muvofiq samarali yo'nalishi sifatida baholanmoqda.

Ma'naviyat - moddiy hayat bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy hodisa, inson karashlarining mezonidir. O'zida juda chuqur va keng qamrovli ma'no-mazmunni mujassam etgan bu tushunchaga har kaysi ma'rifatlari inson o'zining hayotiy qarashlari, ongu tafakkuri va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda turlicha ta'rif berishi mumkin. Insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan darajada alohida ahamiyat kasb etadi.[3]

Ma'naviyat, o'z navbatida, jamiyatning ham umumiy manzarasiga, ham har bir shaxs intellektual-ruhiy qiyofasiga mutanosib ta'sir ko'rsatadi. Fuqarolarning ma'naviy-ma'rifiy darajasi esa o'z navbatida jamiyatning umumiy holatini o'zgartiradi. Yangilangan axloqiy yetuklik va ijtimoiy ong jamiyat taraqqiyotini belgilaydi va taraqqiyotning yangidan-yangi imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Ta'kidlash joizki, har bir yangi avlod yangi tarixni taqozo etadi, uni yaratadi, takomillashtiradi. Lekin shu narsa aniqki, ma'naviyat o'z soxasining qonun va va tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlariini ifodalaydigan keng ma'noli tushuncha sifatidagi ahamiyatini saqlab qolaveradi. Bu borada yurtimizda yangi ma'naviy makonni yaratishda ma'naviyatning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va insonlar o'ttasidagi o'zaro aloqalarini tartibga soluvchi talab va qoidalar majmui sifatidagi, ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar, ideallar, ezgu g'oya va maqsadlar tizimiga alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki aynan ma'naviyat axloq, madaniyat, ma'rifat, din va ta'limgarbiya tizimidan iborat yaxlit hodisalar majmuini, insonning o'zini va o'zi yashayotgan dunyonni takomillashtiruvchi ijodiy faoliyati, kamoloti, uning ma'naviy qiyofasini va ma'rifiy fazilatlar majmuini o'zida ifoda etadi. Shu munosabat bilan Biz Yangi O'zbekistonni yetuk ma'naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz lozim.[4]

Yangi ma'naviy makonni barpo etish jarayonida kishilar hayotida, umuman jamiyatda yuz berayotgan voqyea-hodisalar shaxs ongi va ma'naviyatida muayyan o'zgarishlarni amalga oshirish talab etiladi. Ikkinci tomondan, ma'naviyat voqyelikdagi o'zgarishlarning kelib chiqishi va sodir bo'lishga katta ta'sir ko'rsatadi. Agar ma'naviyat yangilanib, boyib turmasa, juda tez orada eskirib, taraqqiyot omili emas, inqirozga sabab bo'luvchi hodisaga aylanib qolar edi. Jamiyatimiz taraqqiyotidagi burilish, tub islohotlar davrida ma'naviyatda ham jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Insonga xos orzu-intilishlarni ruyobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisol parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak o'rni bo'ladi. Qachonki ana shu ikki muhim omil o'zaro uygunlashsa tom ma'nodagi qo'shqanotga aylansa, shundagina inson davlat va jamiyat hayotida yuksalish, yangilanish jarayonlari sodir bo'ladi. Zero, yuksak taraqqiyot erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o'z hayotini aynan moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligining dialektik va uzviy bog'liqligi asosida rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natjalarga erisha oladi. Bularning barchasi ma'naviy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizdan oziqlangan iqtisodiy taraqqiyot yulimiz jamiyatimiz hayotiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatayotganining yorqin ifodasidir. Eng muhimi, yurtimizda moddiy va ma'naviy jarayonlarning o'zaro mutanosib tarzda rivojlantirilayotgani siyosiy-ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam garovi bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakat istiqboli va shu bilan birga uchinchi renesseans poydevorining yaratilishiga metodologik asos bo'lib xizmat qiluvchi "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitoblarida ma'rifiy islohotlar, barkamol inson tarbiysi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishish va shu asosda barcha islohotlarning ma'rifiy negizini yaratish nuqtai nazaridan ish tutilgan. Yurtboshimiz iqtisodga, huquqiy va siyosiy islohotlarga, shuningdek jahon muammolarini hal etish, tinchlikni ta'minlash masalalariga ham ma'rifiy ko'z bilan qaraydi, yuksak madaniy va umuminsoniy qadriyatlar talablari asosida yondoshishga da'vat etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston respublikasi Prezidenti Farmoni, 07.02.2017-yil PF-4947-soni
2. B.T.T O'ychiyev, I.Ergashev, O .M .Muxammadiyeva, M .I.X o'jayev Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" o'quv qo'llanma Toshkent "Innovatsiya-Ziyo" 2020-yil 43-44 bet.

ILMIY AXBOROT

3. To'rayev Sh., Muxammadiyeva O. "Milliy goya tarixi va nazariyasi." T., 2016.
4. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" O'zbekiston Nashriyoti Toshkent.2021-yil 271-bet.